

**ENERGETIKA SANOATI VA ATROF MUHIT.MUQOBIL  
ENERGIYA MANBALARI**

*Mirzaliyev Yoqubbek Ikromjon o'g'li*

*Toshqo'ziyev Anvarjon Jo'rabek o'g'li*

*Mo'minov Oqilbek Azizbek o'g'li*

*Talaba, Farg'ona politexnika instituti, Farg'ona shahri*

*[mirzaliyevyoqubbek911@gmail.com](mailto:mirzaliyevyoqubbek911@gmail.com)*

Bizga ma'lum shu yaqin yillarda energetika sohasi jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda bu esa o'z navbatida tabiiy resurslardan ko'p miqdorda foydalanishga olib keladi va shu bilan birga energetika sohasi asosan issiqlik elektr stansiyalari dan iboratligi atrof tabiatga salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Shuning uchun biz bor imkoniyatlarimizdan foydalanib muqobil qayta tiklanuvchan energiya manbalardan foydalanishimiz zarur. Respublikamizda issiqlik elektr stansiyalarning (80-84) foizini tashkil etadi. Nafaqat respublikamizda va yana barcha davlatlarda bu ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda energetika sohasida olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay atmosfera havosi kundan-kunga keraksiz chiqindilar bilan to'lib bormoqda. Aniq raqamlar shuni ko'rsatadiki hozirgi kunda atmosferaning sun'iy ifloslanishiga 40% transport vositalari 26% qishloq xojaligi, 20% energetika tarmoqlari, 14% ishlab chiqarish tashkil etmoqda. O'zbekiston Respublikasi ekologiyani muhofaza qilishni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq "Issiqlik elektr stansiyalari" aksiyadorlik jamiyatining elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish korxonalari atrof-muhitning ifloslantirilganligi uchun har choraklik kompensatsion to'lovlarni amalga oshirishadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish, barchamizga ma'lumki, eng muhim global muammolardan biri. Biz muammoning faqat elektr stansiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan qismiga to'xtalib o'tamiz. Har xil turdagi elektr stansiyalarining (issiqlik elektr stansiyalari, gidroelektrostansiyalar, atom elektr stansiyalari) atrof-muhitga ta'siri har xil, shuning uchun biz ushbu uchala holatning har birini alohida-alohida ko'rib chiqamiz. Energetika korxonalarining atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri yoqilg'ini kavlab olish va foydalanish, energiyani aylantirish va uzatishning barcha bosqichlarida namoyon bo'ladi. Issiqlik elektr stansiyasi havoni tinimsiz ravishda iste'mol qiladi. Olingan yonuvchan mahsulotlar issiqlikning asosiy qismini elektr

Stansiyasining ishchi qismiga o'tkazadi, issiqlikning bir ulushi atrof-muhitga tarqaladi va bir ulushi yonish mahsulotlari bilan tuynuk orqali atmosferaga chiqariladi. Atmosferaga chiqadigan yonish mahsulotlari tarkibida azot oksidlari, uglerod, oltingugurt, uglevodorodlar, suv bug'lari va qattiq, suyuq va gazsimon holatdagi boshqa moddalar bor Energetika sohasida tinimsiz izlanishlar olib borilmoqda yangidan-yangi energiya samarador mashinalar ishlab chiqarilayapti. Respublikamizda ham issiqlik elektr stansiyalarini modernizatsiya ishlari olib borilmoqda buning ozi bilan muammo hal bo'lmaydi lekin mamlakatimizda har yerda muqobil energiya olish muammolari imkoniyatlari keng emasligi tufayli issiqlik elektr stansiyalari dan ham birdaniga voz kechish imkoniyati yo'q respublikamizda daryo va o'zanlarning notekis

taqsimlangani uchun gidroelektr stansiyalar dan foydalanish unchalik samara bermaydi. Shamol elektr stansiyalari uchun yuqori tezlikda bolmasa ham doimiy shamol esib turishi kerak. Bunday reyleflar mamlakatimizda sanoqli. Respublikamiz quyoshli yurt bo'lganligi uchun quyosh elektr stansiyalarini dan foydalanish aynan maqsadga muvofiq. Mana bunday ko'p sohalar xususiy sektorga bolayotgan bir paytda energetika sohasini ham xususiy sektorlarga bo'lish kerak. Shunda sohani rivojlanishga yana bir asosiy omil boladi. Agar har bir xonadonni elektr energiyasi quyosh energiyasi bilan ta'minlaydigan quyosh panellarni joylashtirish ancha muammolarga yechim bo'ladi. Sanoat korxonalarini atom elektr stansiyalari hamda quyosh elektrostansiyalari ta'minlay oladi. Respublikamizda hali quyosh panellarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilmaganligi sabab hozircha muamoga to'liq yechim bo'lmaydi. Respublikamizda faoliyat olib borayotgan zavod fabrikalarni ekologiya qilayotgan tasirini kamaytirish chora-tadbirlarni olib borish anashu zavoddan chiqayotgan zaharli tutunni tutib qolish va uni qayta ishlash texnologiyalarni joriy qilish maqsadga muvofiq.

Bizning tabiiy resurslardan ko'p foydalanishimiz atrof muhitga salbiy ta'sirini o'tkazadi. Agar energetika sohasida muqobil energiya manbalaridan foydalanishga tezroq o'tsak muammolarning anchasiga yechim bo'ladi ya'ni tabiiy resurslardan kam foydalanib tog' konlarni inson tomonidan yemirilishini sezilarli kamaytiradi bu esa atrof-muhitni toza bo'lishiga olib keladi ekologiya toza bo'lishi, kasalliklar tarqalmasligi, nogiron insonlar ko'paymasligi va hokazolarga sabab boladi. Ekologiyani toza bo'lishi o'zimiz uchun foydali tanamiz sog'lom bo'ladi va albatta sog'lom fikrlashga zamin yaratadi Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, kelajagi bor, keng istiqbolli noan'anaviy energiya turlaridan foydalanish hozirgi kun talabidir. Eng asosiysi esa, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish kerakligidir. Bu borada elektrlashtirish muammosi bor joylarda quyosh, shamol elektr stansiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

---

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. N.Jabbarov "Ximiya va atrof-muxit", Toshkent "O'qituvchi", 1992 yil 13-27 betlar.
  2. M.Nabiev "Inson va biosfera", Toshkent "O'qituvchi", 1995 y. 2435 bet.
  3. Y.SHodimetov "Ijtimoiy ekologiyaga kirish", Toshkent "O'qituvchi", 1994 yil, 169- 171 betlar.
-